

Jizzakh State Pedagogical Institute



***Journal of Preschool
Education***

***The faculty of pre-school
education***

SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI

Do'smatova Lobar

Erdanova Xurshida

Anatatsiya: Etimologiya haqida malumot,tilshunoslik bo'limida Etimologiya,so'z etimologiyasi haqida ,ilmiy Etimologiya ,soxta Etimologiyasi , xalq Etimologiyasi kabi turlari haqida .

Kalitso'z: Etimologiya termini,ilmiy Etimologiyasi,xalq Etimologiyasi,soxta Etimologiya.

Etimologiya bu-so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi ,so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui ,so'zning kelishi chiqishi.19-asr tilshunosligida "Etimologiya"termeni "grammatika"ma'nosida ham qo'llangan.

Tilshunoslik bo'limi hisoblangan Etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiylar manbalari hamda til lug'at tarkibining shakllanishi jarayonini va uning dastlabki,qadimiy holatini tiklashdan iborat.Har bir til leksikasida muyyan miqtorda so'zlar borki, ularning shakli bilan ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik shu til egalari uchun tushunarsiz bo'lib qolgan, chunki so'zning tarixan o'zgara borishi uning dastlabki shakli bilan ma'nosini xiralashtrib qo'yadi,bunday so'z strukturasini tildagi mavjud yasalish qoliplari orqali izohlab bo'lmaydi.Etimologik tahlilning maqsadi muyyan so'zning qachon ,qaysi tilda qanday yasalishi qolipi bo'yicha ,qaysi til materiali asosida qanday shakl va ma'noda paydo bo'lganini aniqlashdir.Etimologik tahlilining asosiy metodi qiyosiy tarixiy usul bo'lib ,u fonetik qonuniyatlar,morfologik qoidalar,morfologik o'zgarishlarga tayanib ish ko'radi.Bunday tadqiqot natijalari til tizimi va strukturasidagi turli jarayonlari hamda so'zlarning etimologik ma'nolari aniqlashda, etimologik lug'atlar tuzishda ahamiyatlidir .Muayyan til uchun o'zlashma hisoblangan so'zlar Etimologiyasini aniqlash unchalik qiyin emas .Masalan: hozirgi o'zbek tilida qo'llanayotgan "dafatar","piyola","qalam" kabi so'zlarning yunon tiliga mansubligi,o'sha tildagi ma'nosini aniqlash uchun leksikografik izlanish -tegishli tillar arab, fors, yunon lug'atlarini solishtrish kifoya qiladi.

So'z Etimologiyasining ilmiy Etimologiya,soxta Etimologiya va xalq Etimologiyasi kabi turlari bor. Ilmiy etimologik tahlil til tarixiga , lahja va shevalarga murojaat qilish,faktlarni turli yo'llar bilan qiyoslash orqali yuzaga keladi.Masalan;pichoq so'zining "bi"(tig)o'zagiga chak qo'shimchasini yoki "bich"(kes, kesib tashla)fe'liga ak qo'shimchasini qo'shish orqali , "kuy"so'zining qadimiy turkiycha "kbg"(ko'p ma'noli so'z,bir ma'nosi –

ashulada ovozning pastbalandligi) so'zning "ko'y," "kuy" kabi shakl o'zgarishi va qisman ma'no o'zgarishi orqali paydo bo'lganligi ilmiy etimologik tahlilar aniqlashgan. Soxta Etimologiya eskirgan yoki o'zlashma so'zning morfologik tuzilishi va boshqalar xususiyatini noto'g'ri tushunisah natijasida yuzaga keladigan izoh. Masalan: "meditsina" so'zini "madadi Sino" tarzida ajratib, Ibn Sino nomi bilan yoki "dorchin" "dolchin" so'zini "haqiqiy dori" birikmasi bilan bog'lash soxta Etimologiya bo'lib , aslida lot, teslsta-vrachlik mahorati davolash ma'nosini , forscha dorchin\dolchin esa "doruyi chin"-xitoy dorisini ma'nosini bildiradi. Xalq Etimologiyasi muayyan so'z ma'nosini aniq faktlarga asoslanmagan holda, faqat tovush tomoning tasodify o'xshashligiga qarab , shuningdek, afsona va rivoyatlarga tayanib izoxlashdan iborat. Tillardagi so'zlarning dastlabki kelib chiqish ma'nosi Etimologik lug'atlarda beriladi. Etmologiya to'la ma'nodagi fan sohasi sifatida shakllanib yetmagan . Proffesor Sh.Rahmatullayevning keyingi yillardagi tadqiqot va lug'atlari bu sohadagi dastlabki tajribalar hisoblanadi.

Xalq Etimologiyasi so'zning morfologik tarkibini tushunish va uning ma'nosini kelib chiqishi jihatdan farq qiladigan undosh so'zlar bilan keladi. Xalq Etimologiyasi yunoncha etymondan-haqiqat; so'zning asosiy ma'nosи + mantiq . Soxta etimologiya , leksik assotsiatsiya. So'zni tovush jihatidan o'xshash boshqa so'z modelida o'zgartirish va qayta ko'rib chiqish, ular o'rta sidagi semantic aloqalarni o'rnatish.

O'zlashtrilgan so'zni ona tilining o'xshash tovushli so'zi modeli bo'yicha o'zgartrish va qayta ko'rib chiqish, ularning kelib chiqishining haqiqiy faktlarni hisobga olmasdan, ular o'rta sidagi tashqi, tasodify asoslangan semantik aloqalarni o'rnatish. Qayta ko'rib chiqishga misol sifatida berrynomi bilan bog'liq bo'lган qip-qizil jirgash (yoqimli uyg'un qo'ng'iroqlar) ma'nosida kombinatsiya bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev .Sh , O'zbek tilining etimologik lug'ati , T.2000
2. Nemat Mahkamov .O'zbek tilining etimologik lug'ati, T.2000
3. Dadaboyeva.H.A tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi T 2004
4. Tilshunoslikga kirish .Qo'llanma.Xolmonova Z.T.T 2000